

“MAXZAN UL-ASROR” DOSTONINING NUSXALARI VA NASHRLARI

*Feruza Eshonqulova*

*BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik*

*mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

*email:eshonqulovaferuza88@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni qo‘lyozma nusxalarining tarqalishi, saqlangan joylari va nashrlari tahlil qilinadi. Asarning uyg‘ur va arab yozuvidagi qo‘lyozmalari Istanbul, London, Vena, Parij, New York, Dublin, Budapesht, Toronto va Qozon kabi shaharlardagi kutubxona va ilmiy muassasalarda saqlanayotgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu qo‘lyozmalarning xattotlari, yozuv uslublari, miniatura va bezak elementlari, sahifa hajmlari va nashrlardagi farqli jihatlar o‘rganiladi. Dostonning turli nashrlari, jumladan, “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasi, “Asrlar nidosi” va “Muborak maktublar” to‘plamlarida chop etilgan qismlar o‘zaro solishtirilgan. Maqolada “Maxzan ul-asror”ning ilmiy muhitda o‘rganilishi va nashrlardagi tafovutlar xususida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Haydar Xorazmiy, “Maxzan ul-asror”, qo‘lyozma nusxalari, nashrlar, nasta’liq xati, ta’liq xati, miniatura, o‘zbek adabiyoti, masnaviy.

Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” dostoning uyg‘ur va arab yozuvidagi ko‘plab nusxalari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Dastlab uyg‘ur yozuvidagi nusxalarga to‘xtaladigan bo‘lsak:

1. Istanbul universiteti kutubxonasida FY1423 inventar raqamli qo‘lyozmaning 10b-11a sahifalari orasida “Maxzan ul-asror”dan olingan 33 bayt o‘rin egallaydi. Manba 56,5x26,5 sm kattalikda bo‘lib, yozuv 48,8x24 smni tashkil etadi. 11a sahifasining pastki qismida arab yozuvida kitob Zaynul-obidin al-Husayn tomonidan ko‘chirilganligi yozilgan. Ammo, asarning qachon va qayerda ko‘chirilganligi haqida ma’lumotlar mavjud emas. Katta va kichik ikki yozuv shakli qo‘llanilgan nusxada, arab harflari bilan yozilgan arabcha va forscha qismlar bor. Kufiy xatida yozilgan basmaladan keyin uyg‘ur harflari bilan yozilgan “min maqolat-i Mahzan ul-asror” bayti bilan asar boshlangan<sup>1</sup>.

2. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Ayasofiya bo‘limida 4757 inventar raqami ostidagi majmuada “Atobat ul-Haqoyiq” asaridan keyin “Mahzan ul-asror” o‘rin egallagan<sup>2</sup>. Majmuaning 154-sahifasidagi kotib yozuviga ko‘ra zulqada oyining 17-kuni hijriy 884-yil (1480-yil 30-yanvar)da Istanbulda Shayxzoda

<sup>1</sup> Arat, 1962: 121-138

<sup>2</sup> Arat, 2006: 27-30

Abdurazzoq baxshi tomonidan ko‘chirilgan. Manba 17,8x24,8 sm kattalikda yozuv esa 10,5x17 sm bo‘lib, yuqorida uyg‘ur pastki qismda esa xuddi o‘sha matnning arab harflarida berilgan shakli keltirilgan. Asar har bir 11 satrdan 174 sahifadan iborat. Bunda 2-69- sahifalaridan “Hibat ul-haqoyiq”, 70-159-sahifalardan esa “Maxzan ul-asror” 70-159-sahifalardan o‘rin egallagan.

***Asarning arab harfidagi nusxalari:***

1. Istanbul Milliy kutubxonasi Ali Amiri kolleksiyasidagi she‘riy asarlar orasida 951 inventar raqam ostida 39 sahifadan iborat nusxa mavjud. Har sahifa 9 satrdan iborat bo‘lgan bu nusxa ta’liq xatida yozilgan. Manbada 9 ta miniatura ham mavjud.

2. Istanbuldagi To‘pqopi saroyi muzey kutubxonasidagi “Evrak xazinasi” bo‘limida TSMK E.H 1460 inventar raqamli qo‘lyozmaning 1b-22b sahifalarida “Maxzan ul-asror” asari keltirilgan. Har sahifasi 15 satrdan iborat manba ta’liq xatida ko‘chirilgan. 22a-sahifaning pastki chap burchagidagi yozuvga ko‘ra , manba Imod al-Hasaniy ismli xattot tomonidan hijriy 1014-(milodiy 1605-1606)yilda ko‘chirilgan.

3. Istanbul Sulaymoniya kutubxonasi Asad Afandi kolleksiyasidagi 2578 arxiv raqami bilan ro‘yxatga olingan qo‘lyozmaning 187-192-sahifalarida “Maxzan ul-asror”dan namunalar uchraydi. Umumiy 347 sahifadan iborat bo‘lgan majmua 307x175 sm kattalikda. Jigarrang charm yuzli majmuaning boshida Asad Afandining shaxsiy muhri mavjud. Har bir sahifasi 19 satrdan iborat bo‘lgan majmua ta’liq xatida ko‘chirilgan. Manbadagi qaydlarga ko‘ra asar hijriy 1093-yil rabi ul-avval oyining 27-kunida (milodiy 1682-yil 11-mart) xattot Mahmud Ali ibn Mahmud Husayn tomonidan ko‘chirib tugallangan.

4. Dublin “Chester Beatty” kutubxonasidagi 433 arxiv raqamli nusxa 30 sahifadan iborat. Ohorli, ochiq jigarrang sahifalarning qirralari pushti rangda. Kitob chekka qismi zarhal bilan bezatilgan, qora rangli charm muqova bilan o‘ralgan. Manba 29,5x18,2 sm kattalikda. Yozuv esa 18,3x9,5 hajmda. Yozuv maydoni qizil, ko‘k va tillarang chiqizlar bilan bezatilgan bo‘lib, har sahifada 2 ta ustun va ularning har biri 12 satrdan iborat. Matn to‘liq nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Nusxada 17-asrga oid forsiy uslubdagi 8 ta miniatura mavjud. Miniaturalari bo‘lgan sahifalarning atroflari to‘liq zarhal rangdagi gullar bilan bezatilgan. 30a sahifadagi so‘nggi miniaturation nusxa safaviylar shohi Abbos (1587-1636) uchun tayyorlanganligini taxmin qilish mumkin. 1a sahifada manba egalariga tegishli 2 ta muhr bor. Ulardan biri hijriy 1030(1621)-yillar atrofida yashagan Muhammad Ali ismli shaxsga tegishli. Ikkinchisi esa ta’rix noma’lum, ammo muhrda Muhammad Mahdiy bin Muhammad Nosiriy degan yozuv mavjud.<sup>3</sup>

5. Viyanadagi Hofburg imperatorlik saroyi ichida joylashgan Avstriya Milliy kutubxonasida Cod. N. F. 148<sup>11</sup> arxiv raqamli 26 sahifadan iborat nusxa mavjud.

<sup>3</sup> Serkan Çakmak. MAHZENÜ’L-ESRÄR’IN UYGUR HARFLI ALI ŞAH BAŞI NÜSHASI// TAED-66, 2019. 366-s

Hajmi 310x133mm kattalikdagi nusxaning sahifalari sarg‘ish rangda. Sahifalardagi matn sariq, qizil rangdagi ramkada, 2 ustun 12 satrdan bo‘lib, ta‘liq xatida yozilgan. Bir-ikki o‘rinda o‘chgan joylarni hisobga olmaganda, manba yaxshi holatda saqlangan.

6. “Maxzan ul-asror”ning Londonda 2 ta nusxasi bor. Britaniya muzeyida bo‘lgan turkey qo‘lyozma asarlarning boshqa asarlar bilan birgalikda 1998-yilda Britaniya muzeyining yangi ochilgan binosiga ko‘chirilishi sababli hozirda har ikkala nusxa Britaniya muzeyida saqlanadi. Nusxalardan birinchisi Britaniya muzeyida Ad 7914 arxiv raqamli 337 sahifadan iborat bir majmuadir. “Maxzan ul-asror” dostoni ushbu majmuaning 115-141-sahifalaridan o‘rin egallagan. Qo‘lyozma Hirotda hijriy 914 (milodiy 1509) yilda Hasan Jahon Ansoriy tarafidan ko‘chirilgan. Nasta‘liq xatida yozilgan majmuaning har bsahifasi 11 satrdan iborat.

7. Britaniya muzeyidagi “Maxzan ul-asror” nusxalarining ikkinchisi Or. 3491 inventar raqam ostida saqlanadi. Manbaning kattaligi 21,1x15,2 sm o‘lchamda bo‘lib, 33 sahifadan iborat. Har sahifa 12 satrdan iborat va satrlar uzunligi 7,9 sm ni tashkil etadi. Nasta‘liq xatida ko‘chirilgan bu nusxaning sahifalarida qirmizi, yashil, moviy ranglarda chizilgan rasmlar bilan to‘ldirilgan. XVI asrga oidligi taxmin etilgan bu nusxada jadvallar va 6 ta miniature mavjud. Nusxa to‘liq holda emas, shuning uchun ham masnaviyning Sulton Iskandar madhi, “Sulaymon va bir hovuch tuproq” qissasi hamda “Sulton Mahmud va qari zohid “ hikoyalarigina qolgan xolos.

8. Parijdagi Fransiya milliy kutubxonasida (Bibliothèque Nationale France) Suppl. Turc 978 arxiv raqamli 52 sahifadan iborat bo‘lgan majmuaning 25b-52b betlarida “Maxzan ul-asror” dostoni o‘rin egallagan. Dostondan oldin 1b-24a sahifalarda esa Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi “Shayx San‘on” qissasi o‘rin egallagan. Majmua 19x12,5 kattalikda bo‘lib, zarhal gullar bilan bezatilgan, qirmizi rangli charm bilan muqovalangan. Ochiq jigarrangli sahifalardagi ikki ustunli, 12 satrdan iborat bo‘lgan yozuv moviy va tillarang ikki qatorli jadval ichida bo‘lib, sarlavha qismlari tarzิป usulidagi bezaklar bilan bezatilgan . Matn nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Bundan tashqari manbaning XVI asrning birinchi yarmi oidligiga ishora qiluvchi olti miniatura mavjud.

9. New York Xalq kutubxonasida Spenser Coll. Pers. ms. 41 inventar raqamli nusxa hijriy 883-yil 25-jamodilavval (milodiy 1478-yil 24-avgust) oyida, Tabrizda xattot Sul-tonAli Yoqubiy tarafidan Abu al-Muzaffar Yoqub Bahodir xon uchun ko‘chirilgan. Manba 13,4x8 sm kattalikda bo‘lib, ikki ustun shaklda, ta‘liq xatida ko‘chirilgan. Qo‘lyozma miniaturlar bilan bezatilgan.

10. Gruziya bilim yurti qo‘l yozmalar institutida L22 inventar raqam ostida saqlanayotgan 170 sahifali majmuaning 49s-70a sahifalarida “Maxzan ul-asror” dostoni o‘rin egallagan. 21,5x13,5 o‘lcham kattalikdagi bu majmuaga katta zarar yetkazilgan. 70-bet yirtilib, qayta tiklangan. Ammo, matnni o‘qishga qiyinchilik tug‘diradi. Majmuani hijriy 984-yilning zulqada (milodiy 1577-yil yanvar, fevral)

oylarida Ali Valid Mahmud Bek Shamlu bilan Husayn bin Nazir kabi xattotlar qo‘shqalamlikda nasta‘liq xatida ko‘chirishganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Manba qora teri qoplangan karton qog‘oz bilan muqovalangan.

11. “Maxzan ul-asror”ning yana ikki nusxasi Qozon davlat universiteti yozma asarlar kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxalardan birinchisini J.Gottwald 1858-yilda Qozonda toshbosma nusxa tayyorlash maqsadida asos sifatida Venadan keltirilgan qo‘lyozmaning faksimeyl nusxasidir. Ushbu nusxa hozirgi kunda Gottwald sharafiga Gotv.2 inventar raqam ostida saqlanadi. Manba 26 sahifadan iborat bo‘lib, 17,5x22 sm kattalikda.

12. Qozon davlat universiteti yozma asarlar kutubxonasida saqlanayotgan “Maxzan ul-asror”ning yana bir nusxasi T1356 arxiv raqamli bo‘lib, u 24 sahifadan iboratdir.

13. “Maxzan ul-asror”ning maqolalarda bugunga qadar tilga olinmagan arab harfli yana bir nusxasi Kanadadan topilgan. U Toronto universiteti Thomas Fisher nodir asarlar kutubxonasida 04291 inventar raqamli majmuaning 175b-184a sahifalaridan o‘rin egallagan. “Maxzan ul-asror” majmuadagi ikkinchi asardir. Birinchisi esa Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” masnaviysidir. Majmua 22x13 sm kattalikda bo‘lib, kulrang teri bilan muqovalangan. Ko‘chirgan xattot v asana haqida ma‘lumotlar mavjud emas. Ammo manbaning holatiga qarab, uning XVI-XVII asrlarga oid ekanligini taxmin qilish mumkin. Manbada muhr mavjud bo‘lib, unda “*Muraaja teftish shod sana 1315*”,-deb yozilgan. Ko‘p sahifalarning yirtilganligi va umuman yo‘qligi sababli “Maxzan ul-asror” dostoni to‘liq holda emas.

14. Budapesht qo‘lyozmasi Perzsa O. 81 inventar raqam ostida saqlanadi.<sup>4</sup> Manba majmua shaklida bo‘lib, ikki dostonidan iborat. Birinchisi tarixchi olimlar yo‘qolgan deb taxmin qilgan, Azraqi Xaraviyning ( vaf 11-asr oxiri) “Alfiya va Shalfiya” masnaviysidir. Ikkinchisi esa Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonidir. Nusxani ko‘chirgan xattot, san ava qayerda ko‘chirilganligi haqida ma‘lumotlar mavjud emas. Ammo unda Ozarbayjon tilining fonetik xususiyatlariga o‘xshash jihatlar mavjud. Bundan qo‘lyozmani ona tili ozarcha bo‘lgan xattot ko‘chirganligini taxmin qilish mumkin. Manbaning yozuv uslubidan XVI asrda Eronda tayyorlanganligini anglash mumkin.

Doston dastlab “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida nashr etilgan bo‘lib, uning uchun Britaniya muzeyidan olingan London fotonusxasi va Qozon nusxasiga tayanilgan. Keyingi nashrlarda ham Qozon nusxasidan foydalanilgan. Dostonning nomi “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasi “Navoiyning nigohi tushgan” to‘plamida “Maxzan ul-asror” shaklida, “Asrlar nidosi” va “Muborak maktublar”da esa “Gulshan ul-asror” tarzida keltirilgan.

Dostonning “O‘zbek adabiyoti”da 213 bayt, “Asrlar nidosi”da 459 bayt,

<sup>4</sup> Haydar Xorazmiy. Maxzan al-asrar. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020, pp. 34-35

“Muborak maktublar”da 528 bayt, “Navoiyning nigohi tushgan”da 328 bayt qismi nashr ettirilgan.

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” masnaviysi 23 bobdan iborat bo‘lib, Qozon nusxasida ular muayyan boblar tarzida ko‘rsatilmagan. To‘plamlardagi boblar orasida farqli jihatlar esa quyidagicha:

“O‘zbek adabiyoti” to‘plamida “So‘z ta’rifining bayoni”, “Musannifning vasfi holi”, “Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz hikoyati”, “Mav’iza”, “Maqolat”, “So‘zboshi” sarlavhalari ostida she’riy matn keltiriladi. “Asrlar nidosi”da esa yuqorida sanab o‘tilgan sarlavhalardan tashqari “Kitob yozilishining bayoni”, “Pulini yo‘qotgan kishi hikoyati” “Hotami toy hikoyati”, “Andaki bu doira urdi xayol” satri bilan boshlanuvchi 33 baytli alohida qism, “Xorun bila Bahlul hikoyati”, shuningdek, 5 ta “Mav’iza”, 2 ta “Maqolat” va “So‘nggi so‘z” sarlavhalari ostida matn keltirilgan. “Muborak maktublar”dagi doston matni yuqoridagilarni o‘zida mujassam etgani holda “Chunki Temurbek burun etti xuruj” satri bilan boshlanuvchi 26 baytli bir hikoyati bilan “Asrlar nidosi”dagi matndan farqlanadi. “Navoiyning nigohi tushgan” to‘plamida “Asrlar nidosi”dagi “Hotami toyi”, “Andaki bu doira urdi xayol” satri bilan boshlanuvchi 33 baytli alohida qism uchramaydi. Shuningdek, unda 4 ta “Ma’viza” va 1 ta “Maqolat” keltirilgan. “Muborak maktublar” to‘plamidagi doston matni yuqoridagi sarlavhalar keltirilganligi, alohida qisimli hikoyatini o‘z ichiga olgani, shuningdek, o‘sha sarlavhalar ostida baytlar miqdoriga ko‘ra birmuncha kattaroq hajmi tashkil etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi, biroq unda doston qo‘lyozma nusxalarining qaysilariga tayanilganligi ko‘rsatilmagan.

Qozon nusxasidagi “So‘z ta’rifining bayoni” bobi 54 baytni tashkil etadi. U mavjud nashrlar bilan solishtirilganda ushbu bobning to‘liq nashr etilmaganligi “O‘zbek adabiyoti” hamda “Navoiyning nigohi tushgan” to‘plamida uning 9 bayt, “Asrlar nidosi”da 28 bayt, “Muborak maktublar”da esa 29 bayt holda uchrashidan ayonlashadi. Tabiiyki, bunda davr mafkurasining ta’siri borligi sezilib turadi. “Asrlar nidosi” va “Muborak maktublar”dagi ushbu bobning dastlabki 20 bayti Qozon nusxasidagi 26 baytdan boshlangan bo‘lib, ular o‘zaro qiyoslanganda, 9 baytda so‘z bilan bog‘liq matniy tafovutlarning mavjudligi kuzatiladi.

### Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Н. Хайдар Хоразмийнинг Низомий “Махзан ул-асроп”ига муносабат//. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1974, 2-сон, 13-17-бетлар.
2. Асрлар нидоси.-Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1982,7-41- бетлар.
3. Навоийнинг нигоҳи тушган.-Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти , 1986, 187-214- бетлар.
4. Муборак мактублар.-Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат

нашриёти , 1987, 211-246-бетлар.

5. Гаффоров Н. “Гулшан ул-асрор” нашрлари ҳақида// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1993, 2-сон, 52-53-бетлар

6. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: ЎзЮ Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.

7. Ҳ. Хоразмий. Махзан ул-асрор.- Қозон.1858. Инв.5498

8. Ўзбек адабиёти. Тўрт томликю 1-том.-Т.: “ЎзССР давлат бадиий нашриёти, 1959. 196-215- бетлар.

9. Haydar Xorazmiy. Maxzan al-asrar.Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020,pp. 34-35

10. Serkan Çakmak. MAHZENÜ’L-ESRĀR’IN UYGUR HARFLI ALI ŞAH VAHŞI NÜSHASI// TAED-66, 2019. 366-s